



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKILLANTIRISH METODIKASI

Rustam Xurramov Sayfiddinovich

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: rustamkhurramov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakillantirish metodikasini, zamonaviy yangi "ona tili va o'qish savod xonligi" darsligining amaliyotga tadbiq etishning ilmiy asoslari, boshlang'ich sinflarda o'quvchi dunyoqarashini shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakillantirish metodikasini o'qitishda foydalaniladigan interfaol metodlar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Etnopedagogika, sinf, jamiyat, taraqqiyot, murakkab, ijtimoiy munosabat.

Annotation: This article describes the methodology of forming the independent thinking skills of elementary school students, the scientific basis of the practical implementation of the modern new "mother tongue and reading literacy" textbook, the formation of the student's worldview in elementary grades, modern approaches to teaching elementary school students to think independently, and the methodology of forming the independent thinking skills of students in teaching written about the interactive methods used.

Key words: Ethnopedagogy, class, society, development, complex, social attitude.

Аннотация: В данной статье описаны методика формирования навыков самостоятельного мышления учащихся младших классов, научные основы практической реализации современного нового учебника «Родной язык и грамотность чтения», формирование мировоззрения учащихся в младших классах, современные подходы к обучению. самостоятельное мышление учащихся начальных классов, а также методика формирования навыков самостоятельного мышления учащихся в учебном процессе, написанная об используемых интерактивных методах.

Ключевые слова: Этнопедагогика, класс, общество, развитие, комплекс, социальная установка.

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni narsa-hodisalarni taqqoslashga o'rgatish – tafakkurning oddiy, shu bilan birga favqulodda ahamiyatli turi hisoblanadi. U muayyan umumiylikka ega bo'lgan har xil hodisalarni qiyoslashdan yuzaga keladi [1]. Umumiy belgilarga ega bo'lgan predmetlar solishtirilganda ularning farqli tomonlari ham



ko'rinadi. Ikki yoki bir nechta timsol tabiatidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash uchun inson fikran ularning o'ziga xos xususiyatlarini ajratadi, belgilarini aniqlaydi (analiz qiladi) va ularni taqqoslagan holda umumiy tomonlarini tayin etadi (sintez qiladi). Shundan so'nggina o'z mustaqil fikrini aytadi [2].

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o'qituvchidan o'quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to'g'riligini tekshirish va dalillashga, bu yo'lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlariga, hattoki o'qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar, o'z fikrini aytishga o'rgatish talab qilinadi [3]. Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashga yo'l qo'ymasligi; nafaqat darslik muallifi yoki o'qituvchisining, balki o'rtoqlari fikr-mulohazalarini ham takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga etaklashi; o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o'quvchi oldiga o'ziga xos muammo, savol yoki topshiriq qo'ya olishi va uni echishga yo'naltirishi; uchraydigan qiyinchiliklarni engishga odatlantirishi zarur [4].

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida: o'quv topshiriqlarining noto'g'ri qo'yilishi; o'quvchilarni muntazam ravishda erkin faoliyatga undamaslik; mustaqil faoliyatning rivojlanganlik darajasiga e'tibor bermaslik o'quvchi fikrlashidagi mustaqillikning rivojlanishga to'siq bo'ladigan asosiy sabablardandir. O'quvchilardagi tanqidiy tafakkur va mulohazaning etarli darajada taraqqiy etmaganligi, estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi badiiy asar qimmatini yuzaki baholashga olib keladi [5]. Asar to'g'risida chuqur fikr yuritmasdan turib unga baho berishga shoshilish hollari asl turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglay olmaslikka olib keladi [6].

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi [8]. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi. Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo'lib, 1-sinf o'quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi [9]. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmi



topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og‘zaki nutqini o‘stirib, lug‘at boyligini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o‘stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi: “Kungaboqar” metodi. Kungaboqar rasmi o‘rtasida ova uunlilari, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo‘ladi [10]. O‘quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo‘shib, bir necha so‘zlar tuzishadi. O‘yin davomida o‘rtadagi unliharflarni almashtirish ham mumkin. O‘quvchilar mustaqil ravishda daftarlariga tuzgan so‘zlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma o‘quvchilar baravar ishtirok etishadi. O‘qituvchi esa mashg‘ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag‘batlantirib, baholab boradi. Ushbu usuldan yozuv darslarida ham, alifbe darslarida ham foydalanishimiz mumkin. O‘quvchi qancha ko‘p harf o‘rgansa shu harflarni qo‘shib so‘z yasay oladi [11]. Birinchi va ikkinchi kungaboqarda berilgan harflardan shunday so‘zlar yasashimiz mumkin. Masalan: olam, olcha, ota, osmon, usta, uka, uxla. Alifbe darsligi tugagandan so‘ng 1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi kitobida dastlab o‘quvchilarga “Tovush va harf” haqida ma’lumotlar beriladi. Mavzular sekin-asta murakkablashib boradi [12]. Bu holat muayyan qiyinchilik tug‘dirib, biroz bo‘lsa-da o‘quvchilarning darsdan zerikishiga sabab bo‘ladi. Shunday holatlarda interaktiv metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqorida ko‘rsatilgan kungaboqar metodimiz ham bunga yaqqol misol bo‘ladi. “Tovush va harf” bo‘limining dastlabki mashqlari ham o‘quvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirish uchun berilgan [13]. Ushbu metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o‘quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko‘proq o‘quvchilarni baholashga xizmat qiladi. “Sinkveyn” metodi. Sinkveyn so‘zining ma’nosi “beshlik” bo‘lib [14], “Qofiyalanmagan besh qatorlik she’r” degan ma’noni anglatadi. O‘quvchilar “Sinkveyn” metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she’r yozadilar. Bunga ko‘ra birinchi qator bitta so‘zdan iborat bo‘lishi va bu ot so‘z turkumiga oid so‘z bo‘lishi, ikkinchi qator ikkita so‘zdan iborat bo‘lishi va bu sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar bo‘lishi, uchinchi qator uchta so‘zdan iborat bo‘lishi va bu fe‘l so‘z turkumiga oid so‘zlar bo‘lishi, to‘rtinchi qatorda to‘liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi so‘zga sinonim bo‘lgan bir so‘z qo‘yilishi mumkin [15]. Ushbu metoddan 2-, 3-sinflarga o‘tgandan keyin o‘quvchilar so‘z turkumlari haqida tushunchalarga ega bo‘lganlaridan so‘ng foydalanishi mumkin. 2-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida so‘z bo‘limida shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, sanoq va tartibini bildirgan so‘zlar haqida ilk morfologik tushunchalar berilgan. O‘qituvchi o‘quvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, o‘quvchilarni ham birbirlarining so‘zlariga e’tibor bilan qarashga o‘rgatadi [16]. E’tiroz yoki qo‘shimchalar ham “hurmatli”, “sizlarning fikringizga qo‘shilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi so‘zlar orqali bildiriladi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o‘quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o‘z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi [17]. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so‘z yasaliishi va gramatikaga oid bilimlarni o‘rganish uchun zamin



yaratishga xizmat qilishi lozim [18]. Ma'lumki, ona tili darsida ham lug'at ishlarini o'tkazish o'quvchilarda o'zi uchun notanish bo'lgan so'zni izohi haqida qiziqish paydo bo'ladi. Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi metod o'quvchilarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlashga ham o'rgatadi.

Bugungi boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi o'quvchining u yoki bu badiiy asarni o'qib, tushunishining o'zini etarli emas deb hisoblaydi. O'quvchi asarga yangicha yondasha bilishi kerak. Bu boshlang'ich sinf o'qituvchisining saviyasi va bilimdonlik darajasiga bog'liqdir [19]. Shunda o'quvchining kichik yoshidan narsa va hodisalar, odamlar haqida mustaqil nuqtai nazari shakllana boradi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu fazilat o'zgalarning tashqaridan bergan ko'rsatmalari mahsuli emas, kichik o'quvchining shaxsiy fikri, mustaqil o'ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo'ladi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi o'quvchilarining tortinchoq bo'lishiga, fikrini ochiq aytmay, dilida saqlab qolishiga yo'l qo'ymasligi kerak [20].

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan, uni qiziqtiradigan masalalar haqida fikrlashga, yozishga undash kerak bo'ladi. O'quvchi uchun o'zi yaxshi bilmagan, o'ylamagan mavzu haqida yozishdan azobliroq yumush yo'q. Bunday topshiriq uning shaxsida yuzakilikni keltirib chiqaradi, ko'chirmachilikka majbur qiladi. O'quvchida bezovta, uyg'oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg'otish, har bir narsaning mohiyatiga kirishga yo'naltirish lozim bo'ladi [21].

L. Tolstoyning fikricha, bolalarda tafakkur erkinligini o'stirish uchun ularni ijodga undovchi hayotiy omil va kerakli material bilan ta'minlash zarur. Bolaga erkinlik berish, "uni o'qitishni bas qilish" shaxs shakllantirishda juda katta samara beradi. "Agar mening bolalarga berganlarimni usul deb atash mumkin bo'lsa,- degan ekan L. Tolstoy, - u usullar quyidagilardan iborat:

a) ularga eng katta va xilma-xil mavzularni taklif etish va tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular bolalar uchun maxsus tanlangan bo'lmay, o'qituvchining o'zi uchun ham o'ta jiddiy va qiziq bo'lishi;

b) bolalarga namuna sifatida faqat tengdoshlarining ishlarini berish;

v) eng muhimi, bolalarning ishlarini tekshirayotganda daftarining ahvoliga, xatining sifatiga, xatolariga va ayniqsa, uning ifoda tarziga, aytish joiz bo'lsa, uslubiga hech qachon tanbeh bermaslik kerak"[35, 135-B]. Ana shunda boshlang'ich adabiy ta'lim oldiga qo'yilgan maqsad amalga oshishi bir muncha tezlashishi mumkin [22].

O'quvchining mehnati oson bo'lishi kerak emasligi, ularni mustaqil bilim olish, ko'nikma shakllantirish, malaka hosil qilish, mehnatga qiziqtirish, o'zida muayyan axloqiy sifatlarni qaror toptirishga odatlantirish zarurligi, bu esa qiyinchiliksiz amalga oshmasligi taniqli pedagoglar tomonidan ko'p bor ta'kidlangan. Faqat qiyinchiliklarning me'yorini bilish



muhim ahamiyat kasb etadi. Toki, bu mehnat o'quvchining yosh xususiyatlariga mos, o'zlashtiriladigan bo'lishi, uni bajarish huzur va zavq bag'ishlashi lozim. Insonga nisbatan bo'lgan talabchanlik uni kamolot sari etaklashi va o'zini rivojlantirishga undashi kerak [23].

O'quvchilarda o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga boshlang'ich sinflardan boshlab katta e'tibor berish lozim. Ma'lumki, boshlang'ich sinf va kichik o'smirlik davrida diktant yoki bayon yozishda yaxshigina natijalarga erishgan o'quvchilar yuqori sinflarga borganda adabiy yoki erkin mavzularda ijodiy ishlar yozishga qiynalib qoladilar. O'zgalarning fikrini juda chiroyli qilib takrorlab beradigan "savodli" o'quvchilar ko'pincha o'z fikrlarini ifodalab berolmaydilar. Ular yo asar mazmunini qayta hikoya qiladilar yoki darslik mualliflari yoxud o'qituvchisining darsda aytganlarini takrorlaydilar. Ko'pchilik o'quvchilar maktabni o'z fikr va qarashlaridagi originallikni keraksiz deb bilgan holda bitirib ketadilar [24]. Shuning uchun ham fikrni ifodalash ishini fikr aytishga uyalmaydigan davrdan, ya'ni boshlang'ich sinflardan, xatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlar bilan ishlash ijodkorlarning asarlari zahiriga singdirgan yuksak insoniy g'oyalarni o'quvchining ko'ngil mulkiga aylantirish demakdir [25]. Bu o'quvchilar ularni faqat o'qishi bilan emas, balki tom ma'noda uqishi, o'rganishi va bilganlarini yozma yoki og'zaki ravishda ifodalashi orqali amalga oshiriladi. O'qish darslarida asosiy ish asarni o'qish, matn haqida o'quvchilar bilan suhbatlashish, uni tahlil qilishdan iborat. Badiiy asarlar orqali o'quvchining hayotga yaqin, qiziqarli masalalar bilan doim band bo'lgan aqli o'quv materialini o'zlashtiradi. Kuzatishga, mantiqiy asoslar va xulosalarga o'rgangan o'quvchi asta-sekinlik bilan qachonlardir o'zi uchun mavhum bo'lgan fikrlarni ham ilg'aydi, ularda ham qiziqarli narsalarni ko'ra biladi [26].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qilgan badiiy asarni o'rtoqlari bilan birgalikda tahlil qilishlari, asar matnidagi hayotiy muammolarga munosabat bildirishlari ularda tanqidiy nuqtai nazarni shakllantiradi. Bu hol tarbiyalanuvchilarni biror ishga yuzaki yondashmaslikka, puxta o'rganmay, asoslar topmay turib fikr aytmasslikka o'rgatadi. Aslida tanqid to'plangan qator ma'lumotlar asosida tahliliy muhokama qilishdir. O'quvchini shunday belgilarni qidirishga va ularni tahlil qilishga o'rgatish uni jiddiy fikrlashga, ehtiyotkorlik bilan mulohaza yuritishga moyil qiladi [27].

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ular bilan asar haqida suhbatlashish, asar matnidan javob izlashga (matnni aynan takrorlashga emas) majbur etadigan savollar berish, savollar yordamida o'quvchini asar mohiyatiga olib kirish, undagi tasvir haqida ongli ravishda, to'la ishonch bilan ma'lum xulosalarga kelishga ko'maklashish juda muhim. Badiiy asar tahlili jarayonida asarning mazmun va shakli orasidagi aloqani nazardan qochirmaslik, unda aks etgan shaxs bilan jamiyat orasidagi munosabatga e'tibor qaratish ham o'qish darslarining samaradorligini ta'minlaydi [47].



Boshlang'ich sinflar Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni ijodiy o'rganish o'quvchilardan ko'p tomonlama, murakkab faoliyatni talab etadi. O'quvchi o'z tasavvur, tuyg'u va tafakkur kuchi bilan asar timsollarini o'rganadi, muallifning axloqiy-estetik qarashlarini anglaydi, ularning barchasini o'z hayotiy olami bilan taqqoslaydi. Shu yo'l bilan matn mohiyatiga imkon qadar kirib boradi. Badiiy asarlar va ular haqidagi qarashlarni o'zlashtirish jarayoni o'quvchining tushuncha-yu tuyg'ulari hamda dunyoqarashining shakllana borishi bilan tabiiy ravishda bog'liq bo'ladi [28]. Badiiy asar tahlili muallif obrazli tafakkurining mohiyatini anglatadi. Bu jarayondagi bilish inson tafakkurining olamni anglashga bir umr, to'xtovsiz intilishi demakdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarni to'laqonli o'zlashtirish tuyish va fikrlashning birligi orqali amalga oshadi. O'zlashtirish uchun esa fikrlash lozim. Har qanday asar zahirida uning tahliliga asos bo'ladigan jihatlar ifodalangan bo'ladi. Hamma gap tahlil jarayonida hayotiy va badiiy mantiq asosida mana shu jihatni ilg'ay olishdadir [29].

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosida bilim olishlarini ta'minlashda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi ilmi har bir o'qish darsi oldiga tarbiyaviy, ta'limiy, yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar qo'yilishi lozimligini ko'zda tutadi. Bu xil maqsadlar to'g'ri belgilab olinsa, dars jarayoni shu asosda tashkil etilsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi [48]. Afsuski, hozir ham dars jarayonida o'qituvchining diqqat markazida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini ta'minlash emas, balki o'z faoliyatini tashkillashtirish masalasi ustuvorlik qilib kelmoqda. Ya'ni o'qituvchi darsga tayyorlanishda o'quvchilar emas, o'zi qilishi kerak bo'lgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni birinchi o'ringa qo'yadi. Butun diqqat-e'tiborini ana shunga qaratadi. O'quvchilar ikkinchi planga tushib qoladi [30].

Boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars shaklini oldindan aniqlab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda: o'quv materialining mazmuni, hajmi, darsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va qiyinlik darajasini belgilash; materialning o'quvchi hayotiy tajribasi, ilgari o'zlashtirgan bilimi va aqliy-amaliy faoliyati bilan aloqasini o'rnatish; o'quvchining mustaqil ishlari va o'quv topshiriqlari tizimini aniqlash; darsning jihozlarini, axborotlarning asosiy va qo'shimcha manbalarini o'rnatish ko'zda tutiladi [31].

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari sinfdagi o'quvchilar bilan yalpi ishlash, ayni vaqtda har bir bolaning mustaqil faoliyatini birgalikda qo'shib olib borish ko'zda tutilgan holda, o'qitishning jamoa, guruh yoki individual shakllarida tashkil etilishi mumkin. Bundan tashqari, o'qish darslarining maqsad va vazifalariga, mazmun va metodlariga mos keladigan tizim ham zarur [49].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarini badiiy asarlar o'qishga o'rgatish, shu asosda ularni mustaqil fikrlashga odatlantirish uchun ota-onalarini bolalariga kitob o'qib berishga



majbur qilishi lozim. Buning uchun maktabda bolalar va ota-onalarning kitob o'qishiga bag'ishlangan birgalikdagi majlislarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday majlislarda ota-onalarga farzandlariga o'qib berishi lozim bo'lgan badiiy asarlar ro'yxatini yozdirish, avvalo, maktab kutubxonasini zaruriy adabiyotlar bilan boyitish, sotib yoki ijaraga olish mumkin bo'lgan kutubxonalar yoxud internet sahifalari haqida ma'lumot berish kerak bo'ladi [33]. Kitoblarning o'qilish muddatini belgilash va ota-onalarni bundan xabardor qilish zarur. Bolasining ertasi uchun qayg'uradigan ota-onalar bu ishlarni bajarishadi. O'qituvchi belgilangan muddatda o'qilgan badiiy asarlar ustida ishlash darslarini tashkil qilishi, suhbat asnosida o'quvchilariga matn mazmunini qayta hikoyalashni emas, balki munosabat bildirishni talab qiluvchi savol-topshiriqlar bilan murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi [32].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuterga qiziqishlari baland ekani ayon. O'qituvchi o'quvchilardagi shu tabiiy xususiyatdan oqilona foydalana bilishi kerak [50]. Ya'ni ular o'qishlari lozim bo'lgan badiiy asarlarni elektron kutubxonalardan topib o'qishni tavsiya qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki kompyuter orqali ko'rilgan multfilm, kinolar bilan ularning kitob variantini solishtirish borasida ham suhbatlar tashkil etish mumkin. Bunday taqqoslash darslarida o'quvchilar kitobda ifodalangan, kino yoki multfilmda aks ettirish aslo mumkin bo'lmagan muhim jihatlarni topishga yo'naltirilishi, buning sabablari haqida o'ylab ko'rishga undalishi, qahramonlar shaxsini ochishda kitobda aks ettirilgan baland tuyg'ular tasviri, iztiroblar ifodasining qanchalar muhim ekanini anglashga yo'naltirilishi zarur [34].

Boshlang'ich sinf yoshidan o'quvchilarni kitob o'qishga yo'naltirishning yana bir yo'li ularni rag'batlantirishdir. O'quvchilar ma'lum bir sinfni tamomlasalar ularga maqto'v yorliqlari beriladi. Ana shu yorliqlar o'rniga taniqli shoir yoki yozuvchilarning kitoblari sovg'a qilinsa, foydaliroq bo'ladi. Qolaversa, taniqli bolalar shoirlari yoki yozuvchilari bilan o'quvchilar uchrashuvlarini tashkil etish, ular bilan yosh kitobxonlar o'qigan asarlar yuzasidan suhbatlar uyushtirish ham o'quvchilarning badiiy so'zga muhabbatini oshirishi tabiiy [35].

Xullas, yosh avlod ma'naviy takomilini ta'minlashda, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda kitobdan oqilona foydalanish, buni to'g'ri tashkil eta bilish oilada ota-onaning, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning burchidir.

“BBB” metodi

Ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagicha tashkil etilishi mumkin:



Har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarining munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi.

Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O'quv faoliyati bevosita guruh doskasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi jadval (1, 2) asosida tashkil etiladi.

Aqliy hujum metodidan foydalanish 3 bosqich asosida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

O'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.

O'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi. (bo'shliqlar, darslar jarayonida to'ldirib boriladi)

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq tavsiloti quyidagicha:

O'quvchilarning (individual guruhlarda) ishlashlari e'lon qilinadi [36].

O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi va ular tomonidan bayon etilgan tushunchalar jadvalning 1-bandiga yozib boriladi.

O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi va bu ehtiyojlar jadvalning 2-bandiga yoziladi.

O'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi. O'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yoziladi.

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metodda biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.

Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki “pinbord” doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir [37].

Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilarda o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki



yoza ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi [38].

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

- a) ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi;
- b) mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda, yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi;
- c) o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi [39].

Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- a) ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- b) ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Badiiy matn tahlili namunasi:

“Qish” ustida ish



E'tibor qilinsa, taqdim etilayotgan barcha dars ishlanmalari yoki badiiy matnlarning tahlili, asosan, o'quvchilarning mustaqil faoliyati va tafakkuri taraqqiyotiga yo'naltirilganligini payqash mumkin. Bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishni maktabgacha tarbiya muassasalari mashg'ulotlaridan boshlab amalga oshirish maqsadga muvofiq ekani ayon [40]. Ta'lim-tarbiyaning dastlabki bosqichida bu yo'nalishda erishilgan muvaffaqiyatlar boshlang'ich sinflarning dastlabki bo'g'inidan izchillikda davom ettirilishi bu boradagi samaradorlik garovidir. Shu ma'noda Tursunboy Adashboevning birinchi sinf "O'qish kitobi" darsligidan o'rin olgan "Qish" she'rini kichik o'quvchilarning mustaqil tafakkuri va faoliyatini amalga oshirishga yo'naltirilishini ta'minlashni quyidagicha tashkil etish mumkin [41]. Avval o'qituvchi she'rni ifodali qilib o'qib beradi:

Shudgor uzra uvullar

Ayoz bobo bo'roni.

Mehmon bo'ldi qish fasli

Oq choyshabga o'ranib.

Bundan buyon ko'cha-ko'yda

Piyma, etik g'archillar.

Tinim bermas chanalarga

Shokir, Ra'no, Barchinlar [19, 37-B].

So'ngra o'quvchilarini matn mohiyatiga olib kirishga, ularni mustaqil mulohaza yuritib fikr aytishga undash maqsadida asar tahliliga kirishiladi. Darslikda mazkur mavzuni o'rganishga qaratilgan birgina: "Qish fasli sizga nimasi bilan yoqadi?" degan savol kiritilgan. Bu savol o'quvchilarni asar mazmuniga mutlaqo murojaat qildirmaydi [42]. Bu bo'yicha ish tutilsa, she'r o'qilgan joyida qolib ketaveradi. Uning o'quvchi shaxsiga hech qanday ta'siri bo'lmaydi. Axir bu she'r ma'lum maqsad asosida yozilgan va darslikka material sifatida kiritilgan. U shu maqsadga xizmat qilmog'i uchun o'qituvchi va o'quvchilar uning mohitiga kirmoqlari lozim. Buning uchun o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilariga quyidagi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilishi masadga muvofiq bo'ladi:

Shudgor nima ekani haqida o'ylab ko'ring. Uni qachon va qaerda ko'rgansiz?

"Ayoz bobo" kimligini bilasizmi? Uning bo'roni nimadan boshlanadi, sizningcha?

Ayoz boboning bo'roni shudgorda uvillashini qanday tasavvur qilasiz? Fikringizni tushuntirib bering.

Nima deb o'ylaysiz, nega she'rda qish fasli "mehmon" deyilyapti? Sizningcha, uning mehmonligi nimalardan iborat?



Qishning “oq choyshabga o‘ranib” kelishini siz qanday tushundingiz? “Oq choyshab” sizningcha nimani anglatadi?

She’rdagi: “Piyma, etik g‘archillar” degan gapni, sizningcha, qanday tushinish mumkin? Piyma nima ekanini bilasizmi? Bilganlaringizni o‘rtoqlaringizga ham aytib bering [43].

Yaxshilab o‘ylab ko‘ringchi, qishda piyma va etiklar nima uchun g‘archillaydi? Bu g‘archillagan narsa oyoq kiyimlarimi yoki boshqa narsami?

Shokir, Ra’no va Barchinlar nima uchun chanalarga tinim bermasligining sabablarini tushuntirib bering.

She’rga nima uchun “Qish” deb sarlavha qo‘yilganini bilasizmi? Bilganlaringizni bizga ham aytib bering [44].

Ko‘rinib turibdiki, “Qish” she’ri mazmuni yuzasidan bolalarga taqdim etilgan savol va topshiriqlarning birortasiga matnda tayyor javob yo‘q. O‘quvchilar o‘zlari mustaqil mulohaza yuritib fikr aytadilar. Shu tariqa badiiy asarning mohiyatiga kiradilar. Undagi go‘zalliklarni ilg‘aydilar, tasavvur qiladilar [45]. Mustaqil mulohaza yuritib munosabat bildiradilar. Shu tariqa badiiy matnlarning mohiyatiga kirib so‘zdan, tabiat tasviridan zavq oladilar. Bu zavq ularning ma’naviy kamolotiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Uyga vazifa sifatida she’rni yod olishni topshirish mumkin. Sinfdagi chizishga qobiliyati bor bolalarga qish bilan bog‘liq suratlar chizib kelishni torshirish ham o‘rinli bo‘ladi [46]. Keyingi darsda suratkashlar chizganlarini o‘rtoqlariga o‘qib berishlarini talab qilish shart. Bu bilan o‘qituvchi qobiliyat egalarini rag‘batlantirgan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Алимарданова, Р. Н. ОЙЛАДА СОҒЛОМ ПСИХОЛОГИК МУНОСАБАТЛАРНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛЛАРИ. PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет, (S2), 34-38.
2. Алимарданова, Р. Н. (2016). Словесные методы обучения психологии. Вестник современной науки, (6-2), 153-155.
3. Алимарданова, Р. Н. (2016). Словесные методы обучения психологии. Вестник современной науки, (6-2), 153-155.
4. ALIMARDANOVA, R. (2023). STUDY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE YOUNG BRIDE AND GROOM'S LIFE VISIONS IN ENSURING HEALTHY PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIPS OF YOUNG BRIDES AND GROOMS IN UZBEK FAMILIES.
5. ALIMARDANOVA, R. (2023). INTERPERSONAL NORMAL INDICATOR IN ESTABLISHING HEALTHY PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIPS



BETWEEN YOUNG BRIDE AND GROOM IN UZBEK FAMILIES. World Bulletin of Social Sciences, 18, 11-14.

6. Alimardanova, R. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ЁШ КЕЛИН-КУЁВ ШАХСИНИНГ ХАРАКТЕРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ ХУЛҚ-АТВОРНИНГ ЭМПИРИК КЎРСАТКИЧЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6).
7. Qodirova, A. (2023). TA'LIM JARAYONIDA TERMIZIY FIKRLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(3).
8. Qodirova, A. (2023). IMOM AT-TERMIZIY SHAXSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA FIKRLARINING QIYOSIY-ANALITIK JIHATLARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(3).
9. Qodirova, A. (2022). УЛУФ МУҲАДДИС ИМОМ АТ-ТЕРМИЗИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. Science and innovation, 1(B7), 1086-1090.
10. Kodirova, A. B. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF THE MYSTICAL IDEAS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 1281-1286.
11. Kodirova, A. B. (2022). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI ACCORDING TO THE SCIENTIFIC CONTENT AND THE THEORY OF SUFISM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 1287-1292.
12. Қодирова, А. Б. (2019). The views of Al Khakim At-Termizi on the theory of cognition. Psixologiya, (1), 88-90.
13. Қодирова, А. Б. (2022). АБУ АБДУЛЛОҲ МУҲАММАД ИБН АЛИ ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ОҚИЛЛАР ВА АЛДАНГАНЛАР” АСАРИДА НАФС ТАРБИЯСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. Science and innovation, 1(B3), 119-124.
14. Отамуродова, Ш. Қ. О. (2023). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ДИВЕРСИФИКАЦИЯ ТАМОЙИЛИНИ ТАТБИҚ ҚИЛИШ МУАММОЛАРИ. Innovative Development in Educational Activities, 2(19), 150-154.
15. Отамуродова, Ш. К. О. (2019). Особенности использования устного народного творчества в развитии речи учащихся начальных классов. Научные горизонты, (6), 97-102.



16. Otamurodova, S. Q. (2023). TA'LIM TIZIMINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONLARI VA UNING ZARURATI. Interpretation and researches, 2(1).
17. Отамуродова, Ш. (2022). Diversifikatsiya sharoitida to 'g 'ri tashkil etilgan o 'quv jarayoni talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash omili sifatida. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 396-398.
18. Ачилдиева, Н. Б. (2023). ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕМОГРАФИИ. Экономика и социум, (3-1 (106)), 269-272.
19. Mengaliyevna, N. S., & Qizi, X. S. M. (2022). CHARACTERISTICS AND STEPS OF USING TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(03), 60-70.
20. Mengaliyevna, N. S., & Qambardinovna, U. G. (2022). Scientific and theoretical foundations for the formation of social intelligence at school age. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 245-248.
21. Zebiniso, K. (2022). Forming of universals culture values and upbringing learners idea of peace. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1830-1834.
22. Kurbonova, Z. (2023). USING THE TEACHING OF MAHMUD AZ ZAMAXHARI IN IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 21, 121-123.
23. Курбанова, З. (2023). Mahmud az Zamaxshariyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 81-86.
24. Qurbonova, Z. (2023). AXLOQIY TARBIYA ME'YORLARI. Innovative Development in Educational Activities, 2(17), 71-77.
25. Turaeva, G. E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone (pp. 163-165).
26. Turaeva, G. E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 407-410.
27. Turaeva, G. E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 90-93.



28. Turayeva, G. (2023). COMPUTER DIDACTIC GAMES IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS. World Bulletin of Social Sciences, 23, 70-72.
29. Turaeva, G. E. (2021). PERSON-CENTERED TECHNOLOGY OF COLLABORATIVE EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(08), 68-71.
30. Салохитдинова, Н. (2021). Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences). Общество и инновации, 2(7/S), 221-225.
31. Salokhitdinova, N. M. (2020). PROVIDING MEMBERSHIP BETWEEN TESTING AND INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS FROM PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS (An example of elementary school math). Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(12), 14-19.
32. Салохитдинова, Н. (2022). Aniq va tabiiy fanlar tushunchalarining integratsiyasi (Aniq va tabiiy fanlar misolida). Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 368-371.
33. Salohiddinova, N. (2022). INTEGRATION OF EXACT AND NATURAL SCIENCES CONCEPTS (On the example of exact and natural sciences). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 158-165.
34. Salokhitdinova, N. M. (2021). Current state of science integration in primary education. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 533-537.
35. Салохитдинова, Н. (2021). Перспективы развития интеграции начального образования (на примере точных и естественных наук). Общество и инновации, 2(7/S), 221-225.
36. қизи Салохитдинова, Н. М. (2023). БОШЛАҒИЧ СИНФЛАРДА ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ТАЪЛИМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (Аниқ ва табиий фанлар мисолида). RESEARCH AND EDUCATION, 2(4), 123-132.
37. Khamzaeva, D. S. (2020). THE PROBLEM OF SEASONALITY IN TOURISM. Theoretical & Applied Science, (11), 337-340.
38. Khamzaeva, D. S. (2021). ASSESSMENT OF THE SEASONAL FACTOR IN REGIONAL TOURISM AND THE WAYS OF ITS USE. Happy New Year, 25.
39. Samarovna, X. D. (2020). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASINING TARAQIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK



MAHSULOTLAR TAKLIFINI MAVSUMIYLASHTIRILISHI UCHUN USLUBIY YONDASHUVLARNING SHAKLLANISHI. Иқтисодиётда инновация,(SPECIAL 2).

40. Хамзаева, Д. (2022). ТУРИСТИК МАҲСУЛОТЛАР ТАКЛИФИНИ МАВСУМИЙЛАШТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a52. Economics and education, 23(3), 337-341.
41. Ashurkulovna, A. Z. (2023). PHRASEOLOGY-AS A LINGUISTIC DISCIPLINE. World Bulletin of Social Sciences, 22, 27-30.
42. Aliyeva, Z. (2023). SCIENTIFIC CONSIDERATIONS ON PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ORNITHONYM COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEKI. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(10), 84-88.
43. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 66-67.
44. Норбошева, М. А., & Норбошева, М. А. (2018). Реформы системы дошкольного образования в Узбекистане. In Фундаментальные и прикладные исследования: гипотезы, проблемы, результаты (pp. 25-29).
45. Норбошева, М. О. (2020). Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни. Педагогика ва психологияда инновациялар, 9(3), 7.
46. Норбошева, М. О. (2022). МУЛОҚОТГА ЎРГАТИШ БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИ СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(4).
47. Norbosheva, M. A. (2021). Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 297-303.
48. Норбошева, М. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПСИХИК ВА ШАХС СИФАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Педагогика ва психологияда инновациялар, 11(3).
49. Norbosheva, M. (2020). Issues of moral perfection and spiritual height in the poem of “Kutadgu Bilig” by Yusuf Has Hadjib. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 2020.
50. Norbosheva, M. Rivojlantiruvchi erkin faoliyat markazlarini tashkil etish va uning ahamiyati. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O ‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 219